



Sherzod SHAVKATOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: sherzodbek.shavkatov.uzb@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori J. Ibragimov taqrizi asosida

INGLIZ TILIDA FE'LNI FE'LGA BOG'LOVCHI VOSITA SIFATIDA INFINITIVE VA GERUNDIYNING O'RGANILISHI

Аннотация

Ingliz tilida ikki fe'l o'zaro birikishi uchun ulardan biri muayyan shaklda bo'lishi talab etiladi. Chunki fe'l boshqa so'zlarni o'z atrofida uyushtirishga xoslangan turkum hisoblanadi. Fe'l+fe'l birikuvda tobe maqomdagi fe'l shunday xususiyatga ega turkumlarga yaqinlashadi. Ammo bunday so'zlarda fe'l turkumiga xos xususiyatlar ham saqlanib qoladi. Ingliz tilida fe'lning bunday shakllari o'rganilishi uzoq tarixga ega.

Kalit so'zlar: Gerundiy, infinitive, fe'l, bog'lovchi vosita, gibrid shakl.

ИЗУЧЕНИЕ ИНФИНИТИВА И GERUNDA КАК СРЕДСТВ СВЯЗИ ГЛАГОЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В английском языке, чтобы спрягаться два глагола, один из них должен быть в определенной форме. Потому что глагол — это группа, которая организует вокруг себя другие слова. В сочетании [глагол + глагол] глагол в подчинительной позиции приближается к категориям с такими характеристиками. Но в таких словах сохраняются и характеристики глагольной группы. Изучение таких глагольных форм в английском языке имеет долгую историю.

Ключевые слова: Герундий, инфинитив, глагол, союз, гибридная форма.

STUDYING THE INFINITIVE AND GERUND AS MEANS OF CONNECTING VERBS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

In English, in order to conjugate two verbs, one of them must be in a certain form. Because a verb is a group that organizes other words around itself. In the combination [verb + verb], the verb in subordinating position approaches categories with such characteristics. But in such words the characteristics of the verb group are also preserved. The study of such verb forms in English has a long history.

Key words: Gerund, infinitive, verb, conjunction, hybrid form.

Kirish. So'zlarning o'zaro birikishini o'rganish bevosita so'z ma'nosini o'rganish bilan bog'liq hodisa bo'lganligi tufayli ham tilshunoslarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan masalalardandir. Birn necha yuz yilliklar davomida sintagmatikaga oid to'plangan ma'lumotlar o'tgan asrning boshlarida nazariy sintagmatika, birikuvchanlik va valentlik nazariyasi kabi fan tarmoqlarining shakllanishi va taraqqiy etishi uchun asos vazifasini bajardi. Sanalgan fan tarmoqlariga qiziqish kuchaygandan kuchayib bordi. Chunki tilshunoslikning eng muhim obyekti bo'lgan so'z tadqiqi uning birikuvchanlik xususiyatlarini o'rganmasdan amalga oshmasligi aniq. Masalan, ingliz tilidagi to catch fe'lining "jalb qilmoq" ma'nosi mavjud ekanligi someone's eye so'zlari bilan birikkandagina yuzaga chiqadi. Zero, to catch someone's eye birikmasida fe'l "jalb qilmoq" ma'nosini ifodalaydi. Anglashiladiki, so'z birikmalardagini o'zining barcha leksik-grammatik xususiyatlarini namoyon etadi. Bu esa tilshunoslikda so'zlarning o'zaro birikish usullari, ularni biriktiruvchi vositalarning va birikmaning xususiyatlarini o'rganish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. "Jahon tilshunosligida ilmiy qarashlar yo'nalishi va aniq maqsadlar oqimining o'zgarishi, zamonaviy tilshunoslikda inson omili yetakchilik qiladigan antroposentrik yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishi kognitiv tarmoqlarning taraqqiy etishi sintagmatikaga, so'zlar birikuv, shuningdek, valentlik nazariyasiga e'tibor yanada kuchayishi lozimligini ko'rsatmoqda" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida so'zlarni biriktiruvchi vositalarning o'rganilishi bevosita so'zlar birikuvining tadqiqi bilan bog'liq holda amalga oshirilganligi tabiiy holdir. Chunki biriktiruvchi vositalar birikmalarni hosil qilgandagina o'z mohiyatini namoyon qiladi. Ingliz tilidagi so'zlarning birikuv masalasi bilan amerikalik olim L.Blumfild birinchilardan bo'lib shug'ullangan edi. Olim so'zlar birikuv tushunchasini muayyan so'zlar guruhi bilan chegaralamaslikni taklif etadi. L.Blumfildning fikriga ko'ra birdan ortiq so'zdan iborat sintaktik birliklarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1)

endotsentrik birikmalar; 2) ekzotsentrik birikmalar [2]. Bunda endotsentrik birikma sifatida tarkibidagi istalgan so'z boshqa birikmada butun birikmaning o'rnida qo'llana oladigan birikmalar baholanadi. Boshqacha aytganda, birikmadagi istalgan so'z keyingi gap yoki birikma tarkibida endotsentrik birikmaning ma'nosini anglatadi. Masalan, go swimming (suzishga bormoq), enjoy dancing (raqs tushishdan zavqlanmoq) fe'l+fe'l birikmasi endotsentrik birikmalar hisoblanadi. Chunki birinchi birikmadagi go so'zi keyingi gaplarda aynan suzishga borishni anglatadi, ikkinchi gapdagi enjoy so'zi keyingi birikmalarda raqs tushishdan zavqlanishni anglatadi. Ekzotsentrik birikmalarda esa tarkibidagi so'zlardan biri matndagi boshqa birikmalarda butun birikma o'rnida qo'llana olmaydi. Umuman olganda, L.Blumfildning so'z va uning birikuvchanligi tadqiqiga qo'shgan hissasi va erishgan natijalari keyingi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajardi. Olimning so'zlar birikuv haqidagi fikrlari, misollarda ko'rib o'tilganidek, fe'l+fe'l shaklidagi birikuvlarga ham taalluqli edi. So'zlarning, xususan fe'llarning o'zaro birikuvini L.Blumfilddan keyin G.Suit, Ch.Xokket kabi olimlar tomonidan taqiq qilindi [3]. Jumladan, G.Suit o'tgan asrning boshida so'z birikmasi ma'nosini beruvchi, ammo ko'p ma'noli atamaga aylangan phrase atamasi o'rniga word group, wourd cluster atamalarini qo'llashni taklif etadi. Ch.Xokket esa L.Blumfildning endotsentrik birikmasi sifatida ajratgan birikmalarini yana ichki guruhlarga ajratdi.

Ingliz tilida fe+fel ko'rinishidagi birikmalarni hosil qilishda bir qancha vositalardan foydalanish mumkin. Masalan: 1) fe'lning bosh shakli (infinitiv); 2) gerundiy (harakat nomi); 3) iboraviy fe'llar; 4) modal fe'llar. Bu vositalarni o'rganish bosqichlarini tahlil qilish fe'l+fe'l shaklidagi birikmalarning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Sanalgan ingliz tilidagi fe'lni fe'lga bog'lovchi vositalarning har biri chuqur o'rganilgan. Masalan, ingliz tilida infinitiv fe'lning shaxs va son ko'rsatmaydigan, ya'ni shaxssiz shakli sifatida o'rganiladi. Shuningdek, infinitiv fe'lning noaniq shakli sifatida lug'atlarda keltiriladi. Ba'zi tillarda fe'lning bu shakli bosh shakl sifatida talqin qilinadi. Infinitiv fe'lni boshqa bir fe'lga biriktirishda zarur

bo'ladigan fe'l shakli hisoblanadi. Infinitivning bizning tadqiqotimiz uchun zarur bo'lgan sintaktik xususiyatlari O.Yespersen, J.Nesfield, E.Sonnenshayn, A.Eshton, D.Bolinger, E.Anderson, P.Dafley kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan [5]. Hatto ingliz tilidagi infinitiv shaklining boshqa tillarga tarjimasini bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan [10]. Infinitivning semantik xususiyatlari tadqiq qilingan va uning boshqa fe'l shakllaridan farqli xususiyatlari yoritilgan [12]. Infinitivning tashqi belgisi sifatida mustaqil ma'noga ega bo'lmagan va urg'u qabul qilmaydigan to birligi keltiriladi. Masalan, like to swim birikmasida swim so'zining infinitiv ekanligini to birligi bilan qo'llanganligi orqali bilib olish mumkin. Fe'ning infinitiv shaklining leksik va grammatik xususiyatlari ot turkumiga o'xshash bo'lishi tabiiy. Aks holda fe'ning bu shakli boshqa bir fe'lga birikmagan bo'lardi. Masalan, "infinitiv har qanday ot singari gapda to'ldiruvchi (He teaches her to sing), ega (To skate is pleasant), ot kesim (Your duty was to inform me of it immediately) vazifalarini bajaradi" [13]. Keltirilgan misollar otga xos sintaktik xususiyatlarga, shu jumladan, boshqa fe'lga birikish xususiyatiga fe'l infinitiv shakliga kirgandan keyingina ega bo'lishini ko'rsatadi.

Shu o'rinda infinitiv shakli ingliz tilida to birligisiz ham qo'llanishi mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Infinitivning bu xususiyati ham ingliz tilshunosligida atroflicha tadqiq qilingan. Masalan, can (could), may (might), must kabi modal fellar, to make, to help, to let kabi fe'llar bilan qo'llanganda infinitiv shakli to birligisiz qo'llanishi bir qancha tadqiqotlarda qayd etilgan. Shuningdek infinitiv shaklining muayyan munosabat ifodalovchi fe'llar bilan (masalan, hissiy va irodali munosabatlarni ifodalovchi fe'llar) birikkandagi sintaktik, struktur va uslubiy xususiyatlari alohida o'rganilgan [14]. Ammo o'zbek tilshunosligida infinitivning fe'lni fe'lga biriktiruvchi vosita sifatidagi tipologik tadqiqotlar nisbatan kamligi bu borada bajarilishi zarur bo'lgan ishlarning dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fe'ning gerundiy (the Gerund) shakli ham ingliz tilida fe'lni fe'lga bog'lashda xizmat qilishi mumkin. Gerundiy ham infinitiv singari fe'ning shaxssiz shakli hisoblanadi. Bu shakldagi fe'l o'z xususiyatlariga ko'ra ot so'z turkumiga o'xshaydi. Buni gerundiyning gap tarkibidagi sintaktik vazifalarida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni gerundiyning gapda ega (Swimming is my favority activity), ot kesim (A beneficial activity for health is walking), to'ldiruvchi (I remember reading this book) vazifasida kelishi uning otga xos sintaktik xususiyati hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, gerundiy infinitivga nisbatan otga yaqinroq fe'l shakli hisoblanadi. Gerundiy shaklidagi fe'ning predloglar bilan birikishi (I am interested in learning new languages), ba'zi olmoshlarni tobe qilib kelishi (Their taking part in the charity event is greatly appreciated) infinitivda mavjud bo'lmagan ot turkumiga xos xususiyatlar ekanligi fikrimizni dalillaydi. Gerundiyning o'rganilishi uning ham ot, ham fe'l turkumi xususiyatlariga egaligi bilan bog'liq. Ingliz tilidagi gerundiylar birikmalar tadqiqi qarama-qarshi fikrlarga boyligi bilan ajralib turadi [1]. Jahon tilshunosligida gerundiyni o'rganish uning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlarini qamrab oladi. Tilshunoslar

gerundiyning kelib chiqishi, turli tillarda qo'llanishi, gapdagi vazifasini qiyoslaydilar. Shuningdek, dunyo tilshunosligida gerundiyning tarixiy taraqqiyoti, diaxronik o'zgarishi ham tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlarda fe'ning gerundiy shakli vaqt o'tishi bilan qanday taraqqiy etganligi, unga boshqa lingvistik omillar ta'siri tekshirildi [1]. Umuman olganda, gerundiy amaliy grammatikada ham gapning struktur va semantik qismi sifatida faol o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Gerundiy fe'ning otga xoslangan shakli sifatida fe'lni fe'lga bog'lash xususiyati uning tilshunoslar diqqat markazida bo'lishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Masalan, She started laughing after reading the joke gapida reading fe'li boshqa bir fe'l – started ga birikishi uchun u -ing shaklini, ya'ni gerundiy hosil qiluvchi shaklni qabul qilishi lozim bo'ladi. Anglashiladiki, gerundiy shakli fe'ning boshqa bir harakat bilan bog'liq belgisini bildirish uchun matnlarda qo'llanadi.

Ingliz tilida gerundiy shakli aksariyat o'rinlarda predloglar bilan birga qo'llanadi. Ma'lumki, predloglar, odatda, ot turkumiga oid so'zlar bilan birikmalarda ishtirok etadi. Shu sababli har qanday fe'l predlog bilan birikishi uchun u avval gerundiy shakliga kirishi talab etiladi. Gerundiyning predloglar bilan birga qo'llanishi tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bunday fe'l shakli gapda vositali to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol va ot kesim vazifasini bajaradi. Predloglar bilan birikmagan fe'ning gerundiy shakli esa gapda fe'l kesim, ot kesim, vositasiz to'ldiruvchi va ega vazifalarini bajarishi mumkin. Anglashiladiki, predloglarning gerundiya birikishi fe'ning otga xoslangan shakli sintaktik xususiyatlarini boyitadi. Shuningdek, uning semantik xususiyatlarini ham rang-barang qilishga ko'maklashadi. Masalan, There are several beneficial aspects of reading (O'qishning bir qancha foydali jihatlari bor) gapida gerundiy shaklidagi fe'ning qaratqich aniqlovchi vazifasida kelganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Fe'ning gerundiy shakli aniqlovchi vazifasida kelish uchun of predlogi bilan birikishi talab etildi. Xuddi shunday on, before, after, in kabi predloglar yordamida gerundiy shaklidagi fe'l gapda hol vazifasini bajarishi ham mumkin.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, gerundiy shaklidagi fe'ning predloglar bilan qo'llanishi uning sintaktik va semantik jihatlarga ta'sir qilishi tilshunoslarning nazaridan chetda qolgan emas. Gerundiy hosil qiluvchi shakl (-ing) ni boshqa morfologik shakllardan farqlash, ularning grammatik va semantik xususiyatlarini qiyoslash ham tilshunoslarni doimiy qiziqitirib kelgan masalalardan hisoblanadi. Masalan, -ing shakli yordamida gerundiyni tashqari davomiylikni ifodalovchi fe'l (She is singing), hozirgi zamonda ifodalovchi ravish (The running man), harakat tarzi (They left the house, laughing and talking) kabilarni ifodalashi mumkin. Boshqacha aytganda, -ing muayyan harakat nomini (gerundiy) ifodalashdan tashqari payt (zamon), harakat tarzu, holat kabilarni ham ifodalashi mumkin. Ularning grammatik maqomini belgilash, ya'ni shaklning harakat nomi, ravish, sifat, otning fe'lga xoslangan, yoki aksincha, fe'ning otga xoslangan shakli ekanligini aniqlash ham tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ibragimov J. O'zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari. Filol. fanl. dokt. (DSc) diss. – Qarshi. 2023. – 237 b.
2. Bloomfield L. Language. – Chicago: The University of Chicago Press, 1984. – 565 p.
3. Sweet H. A New English Grammar, Logical and Historical, p.II, Oxford, 1930. – P.18-19.
4. Hockett Ch. A Course in Modern Linguistics, N-Y.: Macmillan, 1958. – P.186.
5. Jespersen O. Essentials of English Grammar. – London: Routledge, 1933. – 387 p.
6. Nesfield J. Outline of English Grammar. – London: Macmillan and Co Limited, 1927. – 168 p.
7. Sonnenschein E. New English Grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1945. – 483 p.
8. Ashton A. Mason's New English Grammar. Intermediate. – London: Bell, 1921. – 218 p.
9. Anderson E. On Verb Complementation in Written English // Lund Studies in English. – Lund: CWK Gleeruo, 1985. Vol 71. – 293 p.
10. Рахимов А. Инфинитив в современном таджикском и английском языках. Дисс. канд. филол. наук. – Душанбе. 2013. – 122 с.
11. Гиясова С., Усмонов К. Субстантивные признаки инфинитива в английском и таджикском языках // Вестник ТГУПБ. 2014. №5. – С.237-247.
12. Ефремова О. Модальная семантика инфинитива в английском языке. Дисс. канд. филол. наук. – Москва. 2005. – 134 с.
13. Качалова К., Израилевич Е. Практическая грамматика английского языка. – Киев: Методика, 2003. — 364 с.

14. Лебедева А. Синтаксическая функция инфинитива в сочетаниях с глаголами, выражающими волевые и эмоциональные отношения // Исследования по синтаксису английского языка. МГУ. Ученые записки. – Москва: 1961. – С.13-14.
15. Куклина А. Синтаксические функции инфинитива в составе глагольных инфинитивных конструкций // Вестник Самарского государственного университета. № 10. 2006. – С. 148-153.
16. The Old English Version of Bede's Ecclesiastical History of the English People // edited by Th.Miller, Oxford: EETS, 2003. – 312 p.
17. Bernard A. The Gerund with an Object and Its Equivalent Gerundive in Preparatory Latin // The Classical Journal, 1910. Vol 5, №5, – P.214-219.